

XARAJATLARNI HISOBGA OLISH VA MAHSULOT TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISH USHLUBLARINI RETROSPEKTIV KLASSIFIKATSIYALASH MUAMMOLARI

Shadmankulov Ablakul

Alfraganus universiteti dotsenti,
i.f.n., dotsent

Annotatsiya. Maqolada xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uslublarini retrospektiv klassifikatsiyalash yuzasidan iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar ilmiy tahlil qilingan va mualliflik yondashuvi bayon etilgan. Jumladan, texnologik jarayonlarga nisbatan buyurtmali va bo‘limli, hisobning operativlik va nazorat darajasiga qarab normativ va nonormativ, kalkulyatsiya obyektlari bo‘yicha – detal, mahsulot, bir turdagi mahsulotlar guruhi, bosqich va boshqalar bo‘yicha klassifikatsiyalash tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: xarajatlar hisobi, mahsulot tannarxi, kalkulyatsiya, texnologik jarayon, buyurtma, operativ hisob, normativ, klassifikatsiya, normativ hisob.

Аннотация. В статье научно проанализированы ретроспективные мнения ученых экономистов по классификации методов учета затрат и калькулирования себестоимости продукции, изложен авторский подход к проблемному вопросу. В частности, рекомендовано классифицировать технологические процессы по заказу и разделу, нормативные и ненормативные в зависимости от оперативно-контрольного уровня учета, по объектам калькулирования - деталь, продукция, группа одного вида продукции, этап и т. д.

Ключевые слова: учет затрат, себестоимость продукции, калькуляция, технологический процесс, заказ, оперативный учет, норматив, классификация, нормативный учет.

Abstract: The article scientifically retrospective analyzes the opinions of academic economists on the classification of methods for accounting costs and calculating the cost of production, and presents the author's approach to the problematic issue. In particular, it is recommended to classify technological processes by order and section, standard and non-standard depending on the operational control level of accounting, by costing objects - part, product, group of one type of product, stage, etc.

Key words: cost accounting, production cost, calculation, technological process, order, operational accounting, standard, classification, standard accounting.

Kirish. Iqtisodiy adabiyotlarda xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uslublari turlicha retrospektiv klassifikatsiya qilingan. Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uslublarini klassifikatsiyasi ishlab chiqarish hisobini dolzarb muammolaridan biri bo‘lsa ham, lekin, hozirgacha yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu sababli mazkur muammo qizg‘in muhokamalarga sababchi bo‘lgan. Bu muammoga qiziqish bozor

iqtisodiyoti sharoitida yanada ortdi.

Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uslublarini klassifikatsiya qilishga bag'ishlangan nazariy tadqiqotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy adabiyotlarda ushbu muammo bo'yicha turli tuman yondashishlar va sharhlar mavjud. Masalan, 1970-yilda qabul qilingan "Mahsulot tannarxini rejalashtirish, hisobga olish va kalkulyatsiya qilish bo'yicha asosiy nizom"larda xarajatni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni quyidagi uslublari (normativ, bo'limli va buyurtmali) qo'llanilishi ko'rsatilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Professor I.I.Poklad xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni to'rtta uslubi mavjud ekanligini ta'kidlagan: bir bo'limli, bo'limli, buyurtmali va normativ. Shu bilan birga u normativ uslubni asosiy me'zonlarini boshqa uslublarni xarakterli xususiyatlari bilan chetlashtirish natijasida bir bo'limli – normativ, ko'p bo'limli – normativ va buyurtmali-normativ uslublarini tamoyillarini yaratishni va kelajakda ular hozirda qo'llanilayotgan xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uslublarini o'rnini egallashini yozgan [1].

Akademik N.G.Chumachenkoning yozishicha normativ uslubning tamoyillari ishlab chiqarish xarajatlarini analitik hisobi mahsulot, buyurtma yoki texnologik jarayonlar bo'yicha yuritilishiga bog'liq bo'lmagan holda saqlanib qoladi. Shuning uchun normativ uslubni ishlab chiqarish xarajatlari hisobini mahsulot yoki texnologik jarayonlar, buyurtmalar, mahsulotlar guruhi yoki butun ishlab chiqarish bo'yicha yuritiladigan uslublar bilan bir qatarga qo'yish mutlaqo noto'g'ri [2].

Professor P.P.Novichenkoning fikricha xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uslublarini normativ, bo'limli va buyurtmali uslublarga klassifikatsiyalash mantiqan to'g'ri deb tan olib bo'lmaydi, chunki bu klassifikatsiyaga asos qilib turlicha bo'lgan ikkita belgi olingan: xarajatlarni hisob obyektlari bo'yicha (bo'lim, buyurtma) guruhlash usuli va ishlab chiqarish xarajatlari ustidan hisobning operativ nazorat darajasi (*ishlab chiqarish xarajatlarini sarfi ustidan normalar asosida joriy, kundalik, yoki hisobot oyidagi korxona faoliyatining oxirgi natijalari bo'yicha*). Bunday klassifikatsiya normativ hisobni keng tarqalishiga bilvosita to'sqinlik qiladi, chunki bo'limli va buyurtmali uslublarni normativ hisobni joriy etmasdan qo'llanishiga imkoniyat yaratadi. Yuqorida qayd etilgan uslublarning joriy hisobi normativ hisob tizimida tashkil etilishi mumkin, ya'ni normalardan chetlanishlar oy mobaynida paydo bo'lgan zahoti aniqlanishi mumkin. Normativ hisob tizimini joriy etish shakllangan ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish uslubini inkor etmaydi, aksincha xarajatlarni tegishli hisob obyektlari bo'yicha (bo'lim, buyurtma) guruhlash zaruriyatini ko'zlaydi. Shundan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishning normativ-buyurtmali va normativ-bo'limli uslublarni farqlash kerak [3].

Professor Basmanov I.A. ishlab chiqarish xarajatlarini normativ va normalardan chetlanishlarga ajratish yo'li bilan yoki ajratmasdan o'rganish mumkin deb hisoblaydi. Shuning uchun ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishning ikkita uslubini (normativ va nonormativ) qo'llanilishini tan oladi [4].

P.S.Bezrukix xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uslublarini quyidagicha klassifikatsiya qiladi: oddiy yoki bir bo'limli, buyurtmali va normativ. Shu bilan birga keyingi yillarda normativ hisob uslubini ayrim elementlari (*normalardan chetlanishlarni aniqlash, xarajatlarni normalar va normalardan chetlanishlar bo'yicha alohida hisobga olish*) boshqa uslublarda ham ishlatilayotganligi ta'kidlangan [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uslublarini klassifikatsiyalash yuzasidan retrospektiv, tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tadqiq qilish usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uslublarini klassifikatsiyalash kamchiliklari Stukov S.A., Shenkov S.A., Gilde E.K. va boshqalarning ishlarida ham qayd etilgan. Bu ilmiy qarashlarni o'rganish natijasida normativ hisobning ahamiyati ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi uslubi doirasidan ma'lum darajada chetga chiqadi va ularni bo'limli, buyurtmali va normativ uslublarga klassifikatsiya qilish normativ hisobni mohiyatini va mazmunini to'la aks ettirmaydi degan xulosa chiqarish mumkin.

Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uslublarini klassifikatsiya qilish borasida iqtisodiy adabiyotlarda ikki xil nuqtayi nazar mavjud. Ba'zi bir iqtisodchilar xarajatlarni hisobga olish uslubi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uslubini alohida izohlash mumkin emas deb hisoblaydilar [6].

Ayrim iqtisodchilar xarajatlarni hisobga olish uslublarini va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uslublarini alohida klassifikatsiya qiladi [7].

I.A.Basmanov xarajatlarni hisobga olishni ikkita (*normativ va nonormativ*) uslubini va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni esa quyidagi oltita uslubini klassifikatsiya qilgan: bevosita hisob-kitob, xarajatlarni ayirish, xarajatlarni to'plash, normativ va kombinatsiyalashgan.

Bevosita hisob-kitob uslubi, ishlab chiqarish xarajatlarni, to'g'ridan to'g'ri mahsulot tannarxiga kiritilishi asosida amalga oshiriladi. Xarajatlarni taqsimlash uslubi, ayrim turdagi mahsulotlar tannarxi, xarajatlarning umumiy summasini mahsulot vazni, qiymat ko'rsatkichlari, koeffitsiyentlar va boshqa taqsimlash bazalariga proporsional ravishda taqsimlab aniqlanadigan korxonalar uchun xarakterlidir.

Xarajatlarni to'plash uslubi, mahsulot tannarxi turli bosqich va jarayonlarda qilingan xarajatlarni to'plash asosida aniqlanadigan sanoat korxonalarida qo'llaniladi.

Xarajatlarni ayirish uslubi, asosiy mahsulot bilan bir qatorda ikkinchi darajali (*qo'shimcha*) mahsulot ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Asosiy mahsulot tannarxini aniqlashda umumiy xarajatlardan ikkinchi darajali (*qo'shimcha*) mahsulot xarajatlari ayirib tashlanadi.

Normativ uslub esa, normativ tannarxga normalardagi o'zgarishlar va

normalardan chetlanishlar summasini algebraik yig'indi tarzida qo'shib yoki ayirib aniqlashga asoslangandir. Kombinatsiyalashgan uslub yuqorida keltirilgan uslublarni birga qo'shib ishlatilishini ko'zda tutadi.

Xulosa. Biz xarajatlarni hisobga olish uslublarini va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uslublarini alohida klassifikatsiya qilish mumkin emas deb hisoblaydigan iqtisodchilarning fikriga qo'shilamiz. Chunki xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish bir ishning ikki bosqichi deb hisoblaymiz.

Bizning fikrimizcha, xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uslublari quyidagi belgilar bo'yicha klassifikatsiya qilinishi kerak: texnologik jarayonlarga nisbatan *buyurtmali* va *bo'limli*; hisobning operativlik va nazorat darajasiga qarab *normativ* va *nonormativ*; kalkulyatsiya obyektlari bo'yicha – *detal*, *mahsulot*, *bir turdagi mahsulotlar guruhi*, *bosqich* va *boshqalar*; xarajatlarning yig'ma hisobini tashkil etilishiga qarab – *yarim fabrikatsiz* va *yarim fabrikatli*; hisobning analitik darajasiga nisbatan – “*qozon*” va *detallashtirilgan*.

Ushbu klassifikatsiya xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uslublarini yanada aniq va yaqqol aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Poklad I.I. Учет, калькулирование и анализ себестоимости продукции. -М.: Финансы, 1966-у. 179 bet.
2. Chumachenko N.G. Методы учета и калькуляция себестоимости продукции. – М.: Финансы, 1965-у. 64 bet.
3. Novichenko P.P., Rendukhov I.M. Учет затрат на производства в промышленности. -М.: Финансы и статистика, 1981, 12-13 betlar.
4. Vasmanov I.A. Теоретические основы учета и калькулирования себестоимости промышленной продукции. -М.: Финансы и статистика. 1970, 96 bet.
5. Bezrukix P.S. Бухгалтерский учет в СССР. -М.: Финансы и статистика. 1976, 58-63 betlar.
6. Ivashkevich V.B. Бухгалтерский учет в условиях совершенствования хозяйственного механизма, — М.: Финансы и статистика. 1982. 176 bet. Margulis A.Sh. Бухгалтерский учет в отраслях народного хозяйства. -М.: Финансы. 1979-у. 44 bet. Novichenko P.P., Rendukhov I.M. Учет затрат на производство в промышленности. -М.: Финансы и статистика. 1981-у. 144 bet.
7. Vasmanov I.A. Методы учета и калькулирования себестоимости промышленной продукции. -.: Финансы и статистика. 1970-у. 56 bet. Chumachenko N.G. Методы учета и калькулирования себестоимости продукции. – М.: Финансы. 1965-у. 124 bet.
8. Isroilov B.I. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. T.: 2020.